

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI SA’Y HARAKATLAR

Xasanova Nargiza

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

"Turizm" kafedrası katta o'qituvchisi

Malikova Gulhayo

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

"Turizm" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maskur maqolada O'zbekistonda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor, ayniqsa ziyorat turizmi sohasida olib borilayotgan va kelajakda yurilishi lozim bo'lgan ishlarning islohotlari va ularning amaliy namunalari, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yaratilayotgan sayi harakatlari orqali qilingan qonuniy me'yoriy hujjatlar yoritilgan shuningdek, ziyorat turizmining mamlakat rivojidadagi o'rni va ahamiyati batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ziyorat turizmi ziyoratgoh, muqaddas qadamjolar.

Abstract. In this article, the attention to the field of tourism in Uzbekistan, especially the reforms of the works carried out in the field of pilgrimage tourism and which should be carried out in the future and their practical examples, made through the number of legal actions created for the development of pilgrimage tourism regulatory documents are highlighted, and the role and importance of pilgrimage tourism in the country's development is analyzed in detail.

Key words: Pilgrimage tourism, shrine, holy places.

KIRISH

Ziyorat bu – o‘tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, yolg‘izlik va poklanish yo‘lidan o‘tish. Markaziy Osiyoda buni Ziyorat deyishadi, bu muqaddas qadamjolariga tashrif buyurishni bildiradi. O‘zbekiston doimo ko‘plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish nuqtasi bo‘lib kelgan, bu zaminda turli dinlar targ‘ib qilingan, shu sababli ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar hali hanuzgacha saqlanib qolgan.

Bugungi kunda turizm sanoati tez fursatda rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Bu sanoat mamlakatimizni ham chetlab o'tmaganligini siyosiy-ijtimoiy islohotlardan ham bilishimiz mumkin. Ziyorat turizmiga bo'lgan e'tibor orqali davlatimizda bir qancha global muammolarni bartaraf etishda ko'makchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkilotining Birinchi sammitida so'zlagan nutqida tashkilotning 2016-2025-yillariga mo'ljallangan harakat dasturini qo'llagan holda iqlimning global o'zgarishiga, tuproq degradatsiyasiga, foydalaniladigan yerlar kamayib borayotganligiga, cho'llanish va qurg'oqchilik masalalari mavzulariga yakdil to'xtalib o'tgan edi. Bunday global va mintaqaviy muammolarning yechimida barqaror turizmning, shuningdek ziyorat turizmning o'rni beqiyosdir.ⁱ

Umuman olganda nafaqat global muammolar balki, davlatning turizmi orqali transport, bozor inflatuzilmasi, savdo sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ham ijobiy tasir ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibiki, turizm sohasi qanchalik darajada mamlakat iqtisodida o'ringa egaligidir.

O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish uchun qulay zamindir. Negaki bu makonda dunyoga mashxur islom dini ulamolarining orom topgan maskan hisoblanadi. Hozirgi kunda ularning muborak joylari obod qilinib, maqbaralar, ziyoratgohlarga aylantirilgan va bu qadamjolar hozirgi yosh avlodlarga ma'naviy ozuqa va tarbiya beradigan muqaddas dargoh sifatida qadrlanmoqda. Shundan bilinadiki, diyorimizda olib borilgan tadqiqotlar natijasi ziyorat turizmiga bo'lgan ehtiyoj so'nggi davrlarda yuqori darajaga chiqqanligi ko'rinib turibti. Bu sababli ayni yillarda ziyorat turizmini rivojlantirishga e'tibor yana kuchaydi. O'zbekistonda Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida "Ziyarah tourism" brendi asosida raqobatdosh milliy turistik mahsulotni yaratish va jahon turizm xizmatlari bozoriga olib chiqishda intergatsiyalashgan marketing kontsepsiyasining ishlab chiqishi sohaning rivojiga katta xizmat qiladi.

"Ziyarah tourism" brendi orqali ichki va tashqi turizmni shakillantishda ko'plab tadbirlar, maqsadli va amaliy ishlar olib borilayotgani hechkimga sir emas. Bu qadam bilan xalq orasida diniy ma'naviyat, ajdodlarga bo'lgan xurmat yanada mustahkamlanadi. Mazkur harakat insonlarda ma'naviy qarashlar ortishi oqibatida ziyoratga bo'lgan ehtiyoj yanada ko'payadi va ziyorat obyektlariga tashrif buyuruvchilar soni keng ko'lamda oshirib boradi.

Barchaga ma'lumki, O'zbekiston tarixiy muqaddas qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'nta mamlakatdan biri hisoblanadi. Aynan shu yuzasidan, yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarning 200 dan ziyodi UNESCOning nomoddiy madaniy representativ merosi ro'yxatiga kiritilgan.

O'z navbatida, musulmon dunyosining mashhur olimlari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiylar O'zbekiston hududida yashab ijod qilgani ham mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, O'zbekiston azaldan ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalar markazi bo'lgan, bu diyorda barcha din vakillari birgalikda ahillik va hamjihatlikda yashab kelgan. Shu tufayli ham islom, ham buddaviy va nasroniy dinlari bilan bog'liq noyob yodgorliklar keng ko'lamda saqlanib qolgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan boy madaniy va tarixiy merosga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.

"Crescent Rating" tahlillariga ko'ra, 2026-yilga borib yurtimizga ziyoratga keladigan musulmon sayyohlar soni 230 millionga yetadi. O'zbekistonning ko'p asrlik islom merosini hisobga olsak, ziyorat turizmini rivojlantirish mamlakat uchun katta yutuq va istiqbolga ega.

Davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ham ana shu muhim jihatlar, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish va uning istiqbollari bo'yicha tegishli tashkilotlar oldiga aniq vazifalar aniqlandi va belgilab berildi. Videoselektor yig'ilishida buyuk olim Abu Mansur Moturidiy maqbarasi va uning yaqinida dafn etilgan sakkizta buyuk ulamo qadamjosini dunyoda 170 milliondan ziyod izdoshi

bo'lgan moturidiya ta'limotining ziyorat markaziga aylantirish mumkinligi alohida e'tibor moil ekanligi takidlandi.

Darhaqiqat, bizning diyorda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha boshqa davlatlarda mavjud bo'lmagan keng imkoniyatlar mavjud. Ayni vaqtda ana shu imkoniyatlar eshigini ochish, uni dunyoga tanitish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston o'tmishdan ma'lumki, xushmanzara tabiati, so'lim maskanlari, xalqimizning betakror an'analari va madaniyati bilan chet ellik sayyohlarni o'ziga jalb etib kelgan. Ko'hna obidalar, muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy yodgorliklar doimo sayyohlar bilan fayziyob bo'lgan. Keyingi yillarda bu an'analar yanada rivoj topib, amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar va hukumatimiz e'tibori tufayli ziyorat turizmi industriyasi hamda infratuzilmasi yangi ko'rinish, mazmun-mohiyat kasb etdi. Jumladan, yurtimizdagi yirik ziyoratgohlar, shuningdek, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Nasafiy, Naqshbandiy va Yassaviy kabi ulug' allomalarning boy ilmiy meroslarini dunyoga keng targ'ib qilish maqsadida tajribali imom-xatiblarimizdan iborat targ'ibot guruhi shakllantirildi. Endilikda ushbu guruh reja asosida Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Malayziya, Indoneziya va Pokiston kabi davlatlarga yuboriladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 9-dekabr kuni turizm va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusi yildagi vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselekr yig'ilishida ziyorat turizmiga alohida e'tibor qaratildi. Yig'ilishda, shuningdek, sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan qator vazifalar belgilab olingan.ⁱⁱ

Hozirgi kunda Buxoroda 29 ob'ekt ziyorat turizmi yo'nalishiga kiritilgan. Ammo vohada yana boshqa ko'plab ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ularda infratuzilmasi talabga javob bermagani bois mahalliy darajada qolib ketgan. Faqatgina Buxoroning 500 gektarlik eski shahar qismida 83 ta, voha tumanlarida 200 dan ortiq shunday ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar mavjud. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev topshirig'iga ko'ra Buxoroda ziyorat turizmi ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash uchun mahalliy

byudjetdan 40 milliard so'm ajratilgani ziyoratgohlarni xalqaro yo'nalishga kiritishda muhim va katta qadam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash, shuningdek Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi "2022- 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli Qarori qabul qilindi.ⁱⁱⁱ

Yuqorida takidlaganimizdek, Buxoro ko'plab tabarruk shaxslarni o'zida jamlagan, ulardan Xo'ja Abduxoliq G'ijdivoniy ziyoratgohi, Yetti pirning eng ulug'i xojagon tariqatining asoschisi bo'lgan ushbu zot dunyo musulmlari tomonidan Xojai Jahon deb sharaflangan. Mamlakatimizda yana bir muqaddas qadamjolarimiz bilan faxrlanadigan Samarqandni jahon sivilizatsiyasining muhim diniy o'choqlaridan biri sifatidagi ekanligi bizni quvontiradi. So'ngi yillarda Samarqandda ziyorat turizmi e'tibor yanada kuchaydi bunga yaqqol Ziyorat turizmini yarmarkasi va ko'rgazmasi o'tkazilgani ham dalildir.

Yana bir farx bilan e'tirof etishimiz joizki, mashxur diniy arbob Imom al Buxoriy hazratlarining muqaddas qadamjolari aynan Samarqadda qo'nim topgan. Va bu ziyorat turizmida nafaqat yurtdoshlarimizni balki, butun dunyoni o'ziga jalb qilmoqda. Bu orqali Samarqandda muqaddas qadamjoni qaytadan rekonstruksiya jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Bunga dalil sifatida, Butun dunyo imomi" hisoblangan Imom al-Buxoriyning Payariq tumanidagi majmuasida 10 ming o'rinli masjid, 21 gektar maydonda ulug' ajdodlarimizning diniy merosi obyektlarini aks ettiruvchi tematik xiyobon, 3 ta mehmonxona va 24 ta oilaviy mehmon uylaridan, 3000 nafar ziyoratchilarga xizmat ko'rsatuvchi "Halol" standartiga ega umumiy ovqatlanish korxonalaridan iborat ziyorat turizmi majmuasi barpo etilmoqda va boshqa ziyoratgoh joylarida ham

rekonstruksiya va yangilash ishlari olib borilmoqda va shu kabi islohotlar sababli Samarqandda ziyorat turizmi yuksak rivojlanayotganidan darakdir.^{iv}

Yuqorida aytib o'tganimizday, ziyorat turizm salohiyatini keng targ'ib qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmon loyihasiga asosan mamlakatimizda ham zarur choratadbirlar ishlab chiqildi.

Bulardan Surxondaryo viloyatiga tegishli bo'lgan ayrimlarini keltirib o'tsak: Termizdagi Imom At-Termiziy siyrat musobaqasi, "Termiziy ulamolarining islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi" mavzusida anjumani, Imom At-Termiziyning "Ash Shamoli An-Nabaviya" kitobi va boshqa allomalarning asarlarini xorijiy (ingliz, arab, turk, rus) tillarda sifatli usulda nashr etiladi hamda ziyoratgohlar, temir yo'l vokzallarida sotuvi yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Yetuk Termiziy va boshqa islomshunos ulamolarning hayoti va ijodi, shuningdek, viloyatdagi ziyorat ob'ektlari to'g'risida maqolalarni "Vikipedia" elektron platformalarga joylashtiriladi.

Imom At-Termiziy hayoti va merosi, xususan "Shamoili An-Nabaviya" asari haqida maxsus ko'rsatuvlar tashkil etish, shuningdek, viloyatimizning ziyoratgoh va muqaddas qadamjolari, turli dinlar merosini aks ettiruvchi video roliklar tayyorlash va ularni avia, jumladan xorijiy aviakompaniyalar va poezdlar bortlari mediatekasiga kiritish choralari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Surxondaryo hududida 560 dan ortiq madaniy meros obyektlaridan 95 tasi turizm ob'ektlari sifatidak kengroq foydalanib kelinmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, bizning mamlakatimizda ziyoratga arziydigan e'tiborga loyiq tarixiy va madaniy obidalar bisyordir. Bundan bilinadiki ziyoratchilar, ziyoratga qiziqadigan shaxslarning qiziqishi oshadi va ziyoratgohlarga tashrif buyurish ehtimoli yuqorligi kuzatiladi. Yaratilayotgan imkoniyatlarga hissa qo'shish bilan muqaddas qadamjolarimizni asarshimz va kelgusi avlodlarga munosib topshirishimiz darkordir. Davlatimiz tomonida ichki va tashqi ziyorat turizmni rivojlantirishda ziyorat

maskanlarini ko'paytirish, rivojlantish va turizm tadbirkorligiga juda ko'p islohatlar olib borilmoqda. Bundan ko'rinib turibiki nafaqat ziyorat turizmi balki, barqaror turizmida sayyohlar tashrf buyurishi ko'paymoqda, bu orqali bizning diyorimiz butun dunyoga taralishi va xalqimiz ma'naviyatiga katta tasir ko'rsatishiga xizmat qiladi degan umiddamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uzbekistan.travel/uz/v/ziyosat-turizmi/>
2. Xasanova, G., & Boboev, A. (2023). MINTAQADA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Nashrlar, 1(2), 74–77. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/394>
3. Turayev, Z. (2023). ZIYORAT TURIZMI EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI. TISU Ilmiy Tadqiqotlari Xabarnomasi, 1(2), 64–69. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://scientific.tues.uz/index.php/BSRTUES/article/view/48>
4. Xudoyorov A.A O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ziyorat turizmining rivojlantirish xususiyatlari. Journal of in economy. 2021. Vol.4, Issue 9. -B.46.
5. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021.1-yanvar.1-son
6. Lex.uz, Gazeta.uz, Kun.uz
7. <https://uzbekistan.travel/uz/o/samarqand-viloyati/>
8. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (14), 851-853, 2022